IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: VU63730108

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRINING
BUYRUG‘I

2025 yil.“26”mart **67-son**

“Korxonalar, binolar va inshootlar hududlarini to‘sish” ma’lumotnomasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qurilish sohasiga oid talablarni soddalashtirish hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 6-oktabrdagi 577-son qaroriga muvofiq

B U Y U R A M A N:

1. “Korxonalar, binolar va inshootlar hududlarini to‘sish” ma’lumotnomasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi raisining 1996-yil 21-oktabrdagi 95-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan QMQ 2.07.03-97 “Korxonalar, binolar va inshootlar hududlarini to‘sish” qurilish me’yorlari va qoidalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Ushbu buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir **Sh.Xidoyatov**

O‘zbekiston Respublikasi
Qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vazirining
2025-yil 26-martdagi
67-son buyrug‘iga
ILOVA

“Korxonalar, binolar va inshootlar hududlarini to‘sish” ma’lumotnomasi

Mazkur ma’lumotnoma yangi quriladigan, ta’mirlanadigan va rekonstruksiya qilinadigan korxonalar, bino va inshootlar hududlarini to‘sishni loyihalashda tatbiq etiladi.

1-bob. Shaharsozlik normalari va qoidalari, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda qurilish reglamentiga havolalar

1. Mazkur ma’lumotnomada quyidagi shaharsozlik normalari va qoidalari, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda qurilish reglamentiga havolalar keltirilgan:

ShNQ 1.02.07-19 “Qurilish uchun muhandislik texnik izlanishlar. Asosiy qoidalar”;

ShNQ 1.02.09-21 “Qurilish uchun muhandislik-geologiya izlanishlari”;

ShNQ 1.03.02-23 “Hududlarni rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish to‘g‘risidagi shaharsozlik hujjatlarining tarkibi va mazmuni”;

ShNQ 1.03.03-23 “Qurilish obyektlarini loyihalashtirish”;

ShNQ 2.02.01-19 “Bino va inshootlar asoslari”;

ShNQ 2.03.01-24 “Beton va temir-beton konstruksiyalar”;

ShNQ 2.03.02-21 “Zich silikat betondan beton va temir-beton konstruksiyalar”;

ShNQ 2.03.07-21 “Tosh va armaturalangan toshli konstruksiyalar”;

ShNQ 2.03.11-24 “Bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalarini korroziyadan himoya qilish”;

GOST 13015-2012 “Qurilish uchun temir-beton va beton buyumlar. Umumiy texnik talablar. Qabul qilib olish, tamg‘alash, tashish va saqlash qoidalari” *(rasmiy manba: Изделия бетонные и железобетонные для строительства. Общие технические требования. Правила приемки, маркировки, транспортирования и хранения)*;

GOST 23735-2014 “Qurilish uchun qum-shag‘al aralashmalari. Texnik shartlar” *(rasmiy manba: Смеси песчано-гравийные для строительных работ. Технические условия)*;

GOST 2715-1975 “Metall sim to‘rlar. Turlari, asosiy parametrlari va o‘lchamlari” *(rasmiy manba: Сетки металлические проволочные. Типы, основные параметры и размеры)*;

QR 03.01-23 “Yuk ko‘taruvchi va to‘suvchi konstruksiyalar”.

2-bob. Atamalar va ta’riflar

2. Ushbu ma’lumotnomada quyidagi atama va ta’riflardan foydalanilgan:

to‘siq – muayyan hudud chegarasini belgilash va qo‘rshab olish, to‘sish (himoyalash) maqsadlarida xizmat qiluvchi qurilma (inshoot);

to‘siq konstruksiya – binoning tashqi qobig‘ini tashkil etuvchi yoki uni alohida xonalarga ajratadigan, shuningdek bir vaqtning o‘zida yuk ko‘tarish vazifasini bajarishi mumkin bo‘lgan qurilish konstruksiyasi.

3-bob. Umumiy ma’lumotlar

3. To‘siqlarning balandligi va ko‘rinishi ushbu ma’lumotnomaning 1-ilovasida keltirilgan.

4. To‘siqlarning balandligi qurilayotgan obyektlarning foydalanish maqsadlari, ishlab chiqarish xususiyatlari va xavfsizlik nuqtai-nazardan kelib chiqib o‘zgarishi mumkin.

5. Quyidagi obyektlarda to‘siqlar nazarda tutilmaydi:

bir yoki bir necha binolarda qo‘riqlanadigan kirish eshiklari bilan jihozlangan tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarida (qimmatbaho materiallarni ochiq saqlash omborlari hamda yer usti texnologik transporti bo‘lmaganda);

maydonning umumiy tashqi to‘sig‘i chegarasida joylashgan binolar va inshootlarning alohida uchastkalari, bunda, texnika xavfsizligi yoki sanitariya talablari nuqtai-nazardan kelib chiqib to‘siladigan uchastkalar (ochiq elektr podstansiyalari, karantinlar va go‘sht kombinatlari izolyatorlari va boshqalar) bundan mustasno, korxonalarning kelgusida kengayishi uchun zaxiraga olib qo‘yiladigan hududlar;

tog‘-kon sanoati korxonalari (shaxtalar uchastkalari, ochiq konlar, qimmatbaho bo‘lmagan qazib olinadigan metallarni ishlash, boyitish fabrikalari, tog‘ qutqaruv bo‘linmalarining binolari va boshqalar);

karyerlar (portlash ishlari olib boriladigan uchastkalardan tashqari) va qazib olinadigan ruda va noruda materiallar omborlari (boksitlar, rudalar, toshlar, shag‘al, qum va boshqalar);

yopiq elektr taqsimlash qurilmali binolar va podstansiyalar, kommunal vazifani bajaruvchi inshootlar (filtratsiya va sug‘orish dalalari) umumiy foydalanishdagi yer maydonlari, suv havzalari va ularning qirg‘oqlari;

qimmatbaho bo‘lmagan xom ashyolar va materiallar uchun omborlar;

temir yo‘l stansiyalari (qo‘riqlash, foydalanish yoki xavfsizlik texnikasi shartlari bo‘yicha to‘siqlar talab qilinadigan to‘siqlardan tashqari);

sanoat korxonalarining zavod oldi hududlarida joylashgan yordamchi bino va inshootlar;

ko‘p qavatli turar-joy binolari;

savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish binolari;

umumiy ovqatlanish binolari;

statsionarlari bo‘lmagan davolash-profilaktika muassasalari (poliklinikalar, dispanserlar, diagnostika markazlari);

madaniyat tashkilotlari.

6. To‘siqlar binolarning old tomonida joylashgan maydonlari chegarasi bo‘ylab joylashtirilmaydi. Bunda, to‘siqlarni faqat binolar oralig‘ida ko‘zda tutiladi.

7. To‘siqlar konstruksiyalari ekspluatatsiya qilishga qulay va estetik talablarga javob beradigan ixcham bo‘ladi.

8. To‘siqlar namunaviy yoki yakka tartibdagi loyihalarga (loyihalashtirish topshirig‘iga) muvofiq yig‘ma temir-beton, yaxlit beton, shlakobeton, gazobeton, pishiq g‘isht, silikat g‘isht yoki boshqa mahalliy materiallardan, shuningdek po‘latdan yasalgan to‘rdan yoki tikanli simdan, naqshli temir panjaralardan bo‘lishi mumkin.

9. Yig‘ma temir-beton, yaxlit beton, shlakobeton, gazobeton, pishiq g‘isht, silikat g‘isht yoki boshqa mahalliy materiallardan tiklangan to‘siqlar yig‘ma temir-betondan, yaxlit betondan yoki xarsang toshli betondan bo‘lgan poydevorlarga ega bo‘ladi.

G‘isht yoki shlakobetondan yasalgan to‘siqlar beton yoki xarsang toshli beton poydevor (sokol)ga ega bo‘ladi. Poydevorning yuzasi tarkibi 1:2 nisbatdagi sement-qum qorishmasidan tayyorlangan, qalinligi kamida 30 mm bo‘lgan gorizontal gidroizolyatsiya qatlami ko‘zda tutiladi.

10. Yaxlit o‘zaklangan yoki o‘zaklanmagan to‘siqlar uchun temperatura va cho‘kish choklari orasidagi masofa isitilmaydigan binolar uchun ShNQ 2.03.01-24, ShNQ 2.03.02-21 va ShNQ 2.03.07-21 ga muvofiq belgilanadi.

Temperatura va cho‘kish choklari to‘siq hamda poydevorning ko‘ndalang kesimi bo‘yicha butun balandligi bo‘ylab bajariladi.

11. Agar to‘siqlarni yaxlit beton poydevorlar zaminlari o‘ziga xos xususiyatli (cho‘kuvchan, ko‘pchuvchan, sho‘rlangan va boshqalar) gruntlardan iborat bo‘lsa, u holda poydevorlar zaminlarining namlanmaslik choralari ko‘riladi.

Bunday hollarda to‘siq poydevorining poshnasi cho‘kish choklari bilan qirqilishi zarur.

12. Cho‘kish choklari orasidagi masofa, konstruksiyani egilishga hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi va taxminan 30 – 40 m qabul qilinishi mumkin. Cho‘kish va temperatura choklarini qo‘shib yuboriladi.

Choklar eni gorizontal ko‘chishga va aralash uchastkalar nishabi hamda gruntlarni xususiy og‘irligidan cho‘kishini ShNQ 2.02.01-19 ga muvofiq hisob qilinib aniqlanadi.

13. To‘siqlar poydevorlarining yer osti qismlari namlikdan va suvdan himoya qilinadi.

14. To‘siqlarning metall elementlari ShNQ 2.03.11-24 ga muvofiq korroziyaga qarshi himoyalanadi.

15. To‘siq konstruksiyasining ag‘darilishi oldini olish maqsadida to‘siqlarning gorizontal kuchlarga chidamligi va mustahkamligi (jumladan, shamolga turg‘unligi, zilzilabardoshligi) tekshiriladi.

16. Agar gorizontal va vertikal kuchlar devorning siqilish chekkasidan yetarli masofada joylashgan bo‘lsa, ya’ni ekssentrisitet miqdori cheklangan bo‘lsa, devorlarning mustahkamligi va bardoshliligi ta’minlanadi.

Quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$E_o = M / N \leq m * y$$

bu yerda:

M – ko‘ndalang kuch hisobidan va markazdan tashqariga qo‘yilgan me’yoriy kuchlar momenti;

N – elementning xususiy og‘irligidan beriladigan me’yoriy kuchini yuklanma koeffitsiyentini 0,9 ligini hisobga olib aniqlanadi;

m – 0,9-devorlar uchun qabul qilinuvchi koeffitsiyent;

u – ekssentrisitet tomoniga, og‘irlik markazidan elementning to kesim chetigacha bo‘lgan masofa.

17. To‘siqlar poydevorlari chuqurligi ShNQ 1.02.07-19, ShNQ 1.02.09-21 va ShNQ 2.02.01-19 ga muvofiq qabul qilinadi.

4-bob. To‘siqlar tasnifi

18. To‘siqlar funksional maqsadiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

himoya-xavfsizlik – xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari bo‘lgan hududga va maydonga begona shaxslarning kirishini oldini olish va moddiy boyliklarini himoya qilishni ta’minlash uchun mo‘ljallangan;

himoyalovchi – xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari bo‘lgan hududga begona shaxslarning kirishini oldini olish uchun mo‘ljallangan;

signalli – xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari bo‘lgan hududlar chegaralari to‘g‘risida ogohlantirish uchun mo‘ljallangan.

19. Konstruktiv yechim bo‘yicha to‘siqlar panelli, panelli-ustunli va ustunli bo‘lisha mumkin (ushbu ma’lumotnomaning 2-ilovasi). Panelli to‘siqlar o‘rnatilishi bo‘yicha yaxlit va siyrak bo‘lishi mumkin.

Himoya-xavfsizlik to‘siqlar yaxlit bo‘ladi.

5-bob. Temir-beton to‘siqlarni loyihalash

20. Panjarali va yopiq temir-beton to‘siqlar quyidagi guruhga bo‘linadi:

1-guruh. Yaxlit konstruksiyali – sokol va ustunlari bilan panel elementni tashkil etadi. Panellar o‘zaro biriktiruvchi elementlarni payvandlash orqali biriktiriladi. Bularga quyidagilar kiradi:

temir-betonli panjarali to‘siq;

bino devorining yer ustki qismi bilan temir-betonli panjarali to‘siq;

bino devorining yer ustki qismi bilan temir-betonli yopiq to‘siq.

2-guruh. Ustunlarga payvandlangan – ustunga osilgan sokolsiz panellar. Panellar orasidagi choklar monolit qilinmaydi. Bunga temir-beton ustunlarga osilgan panjarali temir-beton to‘siq kiradi;

3-guruh. 2,4 m qadamli yonma-yon (qo‘shni) panellar orasidagi bo‘shliq (zazor) bilan ikkita ustunga osilgan bino devorining yer ustki qismisiz ikki qavatli panellar.

21. Barcha turdagi to‘siqlar stakansimon temir-beton poydevorlarga kiritiladi.

1-guruh to‘siqlar uchun nishabli hududda qo‘llanishda uzaytirilgan tayanchlar va maxsus poydevorli panellardan foydalaniladi.

Poydevor ostidagi gruntlarda 300 mm qalinlikda, GOST 23735-2014 bo‘yicha o‘rta va yirik fraksiyali qum-shag‘al aralashmasidan taglik to‘shamasi tayyorlanadi.

22. To‘siqlarni panjarali yoki yopiq temir-beton panellari, ularning ishchi armaturalari, montaj ilmoqlari, o‘rnatish elementlari GOST 13015-2012 ga muvofiq ishlab chiqarilgan bo‘ladi.

23. To‘siqlarni temir-beton elementlari o‘rnatiladigan joyga GOST 13015-2012 ga muvofiq tashib kelinadi.

24. To‘siqlarning temir-beton elementlarini o‘rnatish ishlari QR 03.01-23 ga muvofiq bajariladi.

6-bob. Metall to‘siqlarni loyihalash

25. Metall to‘siqlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1-guruh. Temir-beton yoki metall materiallaridan tayyorlangan ustunlarga tortiladigan, temir sterjenlarga yoki ugoloklarga tortilgan GOST 2715-75 ga mos po‘lat simdan to‘qilgan to‘rli;

2-guruh. Temir-beton yoki metall materiallaridan tayyorlangan ustunlarga mahkamlanadigan metall setkali panellar (setkali metall to‘siq, payvandlangan setkali metall to‘siq);

3-guruh. Yog‘och ustunlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki temir-beton ustunlarga yog‘och plastinalari yordamida mahkamlanadigan tikan simli.

7-bob. To‘siqlarni o‘rnatish

26. Doimiy va vaqtincha to‘siqlar quyidagi texnologik talablarni hisobga olgan holda o‘rnatiladi:

to‘siqning o‘q chiziqlari hududda darvoza belgilar o‘rnatilishi bilan mahkamlanishi, shuningdek ularning uzoqlikligi qurilish maydonchasining o‘ziga xos sharoitlariga qarab belgilanishini;

sokolli to‘siqlar uchun xandak mexanik ravishda o‘qning har ikki tomonida 10 cm gacha va sokol tagini 10 cm chuqurroq (drenaj qatlamini o‘rnatish uchun) ochilishi kerak. Qazilayotgan xandaqning kengligini xandaq devorlari tuprog‘i to‘kilishini.

27. Yashil devor shaklidagi to‘siqning birinchi qator butalari oldindan tayyorlangan xandaqlarga, kamida 50 cm kenglikda va chuqurlikda ekiladi. Keyingi qator butalari uchun xandaqlar kengligini 20 cm ga ko‘paytiriladi.

28. Yer ostidagi qismi betonlashtirilmagan ustunlarga to‘siqlar ustunlar o‘rnatilgandan so‘ng darhol joylashtiriladi. Yer osti qismi betonlashtirilgan temir-beton yoki metall ustunlarga o‘rnatiladigan to‘siqlar ustunlari tagliklari betonlashtirilgandan so‘ng ikki haftadan keyin o‘rnatiladi.

29. To‘siqlar uchun diametri 14 cm dan va uzunligi 2,3 m dan kam bo‘lmagan yog‘och ustunlar foydalaniladi. Ustunning yerga ko‘miladigan qismini (kamida 1 m) chirishdan saqlash maqsadida qizdirilgan bitum bilan shuvaladi yoki ko‘mir paydo bo‘lguncha olovda yoqiladi.

30. Yerga o‘rnatiladigan ustunlar diametri 30 cm bo‘lgan chuqurlarga o‘rnatiladi va to‘ldirishda tuproqning chaqiqtoshli yoki shag‘alli aralashmasi bilan zichlab ko‘miladi.

Yer osti qismi betonlanib o‘rnatiladigan ustunlar ularning vertikal va rejadagi holati tekshirilgandan so‘ng betonlanadi. Ustunlarning vertikal va rejadagi holatining og‘ishi 10 mm dan oshmaydi.

31. Ustunlarga sim tortish yo‘li bilan tiklanadigan to‘siqlar ustunlar orasidagi burchakli diagonal va o‘zaro bog‘lovchi simlarni o‘rnatishdan boshlanadi. Ustunlar orasidagi o‘zaro bog‘lamalar oralig‘i 50 m dan oshmaydi.

32. Diagonal va o‘zaro bog‘lamalar ustunlarga kesib kiritiladi, zichlab tortiladi va mahkamlagich (skoba)lar bilan biriktiriladi.

33. Bog‘lamalar mahkam o‘rnashgunga qadar 2 cm chuqurlikda ustunlarga kesib (arralab) kiritiladi. Mahkamlagich (skoba) lar bog‘lovchi element o‘qiga nisbatan perpendikulyar ravishda qoqiladi. Bog‘lamalar ustunning yuqori qismida ustun uchidan kamida 20 cm pastda, pastki qismida esa yer sathidan 20 cm dan yuqorida mahkamlanadi.

34. Simli to‘siqlar hudud relyefini takrorlashi (parallel bo‘lishi) mumkin. Simlarning oraliq masofasi 25 cm dan oshmaydigan qilib qabul qilinadi. Tikanli simlarning barchasi X-shaklidagi bog‘lamalar bilan kesishgan joyida sim bilan bog‘lanadi. Sim to‘siqlarni o‘rnatishda simni pastki qatordan boshlab biriktiriladi. Simlar yog‘och ustunlarga mixlab mahkamlanadi.

Simlar, diagonal va X-shakldagi bog‘lamalar temir-beton yoki metall ustunlarga loyihada ko‘zda tutilgan tartibda maxsus ushlagichlar bilan mahkamlanadi. Simni taranglashtirish simdagi egilish yo‘qolgunga qadar amalga oshiriladi.

EZR3847

35. Po‘latdan yasalgan to‘r to‘siqlar ustunlar orasiga o‘rnatiladigan bo‘limlar seksiyalar ko‘rinishida bajariladi.

36. Seksiyalar temir-beton ustunlarga o‘rnatilgan birikish qismlarga, metall ustunlarga esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri payvand qilinadi. Metall ustunlarga o‘rnatilgan birikish qismlarga seksiyalar bolt (gayka) lar yordamida mahkamlanishi mumkin.

37. To‘r to‘siqlar uchun ustunlar oldindan yoki seksiyalar montaji bilan bir vaqtda o‘rnatilishi mumkin. Ustunlarni o‘rnatishda to‘siqlarning rejadagi va profildagi holatini vertikal va gorizontal holati tekshiriladi. Metall va temir-beton ustunlar yerga betonlashtirilgan holda o‘rnatiladi.

38. Yig‘ma temir-betondan to‘siqlarni o‘rnatish dastlab ikkita ustunni vertikal holatda ushlab turadigan vaqtinchalik tirgaklarni o‘rnatishdan boshlanadi.

39. Ustunlarda o‘yiqliklar tozalangan, to‘siqning yig‘ma elementlari ularning ichiga kiritilgan bo‘ladi.

40. Yig‘ilgan seksiya loyiha holatida vaqtincha tirgaklar bilan mustahkamlanadi. Shundan so‘ng, uchinchi ustun vaqtincha tirgak bilan o‘rnatiladi va to‘siqning ikkinchi seksiyasini o‘rnatish shu tarzda davom etiladi.

41. Bir nechta seksiya o‘rnatgandan so‘ng, ularning rejadagi va gorizontal holati tekshiriladi va ustunlari markasi M200 dan past bo‘lmagan beton bilan betonlashtiriladi.

42. Yig‘ma temir-beton to‘siqlarning ustunlari betonlashtirilgandan so‘ng kamida bir hafta vaqtincha tirgaklar bilan turadi.

43. To‘siqlarning sokollari g‘ishtdan yoki korxonalarda ishlab chiqarilgan elementlardan 39 cm kenglikda bajariladi. G‘ishtdan bo‘lgan sokollarning ustki qismi markasi M150 dan past bo‘lmagan sement-qum qorishmadan ikki tomonlama nishabli qoplama bilan yopiladi.

44. To‘siq hamda uning alohida elementlarining rejadagi, vertikal va gorizontal holati loyihaviy holatiga nisbatan 20 mm dan oshmasligi, shuningdek, aniqlangan nuqsonlar to‘siqning tashqi ko‘rinishiga yoki uning mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi tavsiya etiladi.

45. Sim to‘siqlarda diagonal va X shaklidagi o‘zaro bog‘lamalar o‘rnatiladi va biriktiriladi.

46. To‘siqlarning yig‘ma elementlari o‘yiqlar ichida zich joylashtirilgan bo‘ladi.

47. To‘siqlarning metall elementlari va payvandlangan choqlari korroziyaga qarshi bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi.

48. Yangi qurilayotgan obyektlar uchun to‘siqlar turi va o‘lchamlari loyiha hujjatlarida ko‘rsatiladi.

49. Mavjud (foydalanishda bo‘lgan) bino va inshootlarning hududlari uchun to‘siq o‘rnatish uchun alohida loyiha hujjatlari ishlab chiqiladi.

EZR3847

“Korxonalar, binolar va inshootlar
hududlarini to‘sish” ma’lumotnomasiga
1-ILOVA

To‘siqlarni tanlash jadvali

T/r	Korxonalar, binolar va inshootlar	To‘siqning balandligi, m	To‘siq turi
1.	Maydonida muntazam transport harakati bo‘lgan inshootlar va korxonalarini, texnika havfsizligi talablari bo‘yicha to‘silgan, shuningdek sanitariya talablariga muvofiq to‘siladigan oziq-ovqat, qishloq xo‘jalik va boshqa mahsulotlarni qayta ishlash bo‘yicha koxonalar (sut-go‘sht, sabzavot konservalari, vinochilik zavodlari va b)	2	Yaxlit temir-beton
2.	Qimmatli mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalari, qimmatli materiallar va uskunalar omborlari, ularni bir necha qo‘riqlanmaydigan binolarda joylashtirish. Xuddi shunday ayniqsa qimmatli materiallar, asbob-uskuna va mahsulotlar (qimmatli metallar va b.)	1,6-2 2	Po‘lat to‘r yoki temir-beton panjara Yaxlit temir beton
3.	Texnika havfsizligi talablari bo‘yicha to‘siladigan aholi punktlari hududlardagi obyektlar: - ochiq taqsimot qurilmalar, podstansiyalar, nasosxonalar, qozonxonalar va boshqalar; - xuddi shunday, aholi yashash joylaridan chetdagi; - xuddi shunday, korxonalar hududlaridagi; - gaz inshootlari	 1,6-2 1,6-2 1,2-1,6 2	 Po‘lat to‘r yoki temir-beton panjara Tikanli sim Po‘lat tur Po‘lat to‘r, naqshli temir yoki temir-beton panjara
4.	Sanitar-gigena talablariga binoan to‘siladigan aholi punktlari hududlarida va hududidan tashqaridagi obyektlar (toza suv rezervuarlari, artizan skvajinalar suv olinadigan joylar va b.)	2,5	Yaxlit temir-beton, tikanli sim yoki po‘lat to‘r,
5.	Texnika xavfsizligi talablari bo‘yicha to‘siladigan transport vazifasidagi obyektlar (aholi punktlari hududlari chegarasidagi temir yo‘llarni xavfli uchastkalari)	1,2	Po‘lat to‘r, tikanli sim (aholi punktlari hududlaridan tashqari)

6.	Aerodromlar: a) 1 va 2 toifadagi aeroportlar b) 3, 4 va 5 toifadagi aeroportlar	 2 2	 T-simon kiygizma bilan yaxlit temir beton to‘siq (izohning 3-bandiga qarang) Temir beton ustundagi tikanli sim yoki T-simon kiygizmali temir to‘r (izohning 3-bandiga qarang)
7.	Sanitariya yoki veterinariya talablari bo‘yicha to‘siladigan qishloq xo‘jalik korxonalari	1,6-2	Po‘lat to‘r yoki temir-beton
8.	Kasalxonalar (infeksion va psixiatriyalardan tashqari) Xuddi shunday infeksion va psixiatriya	1,6 2	Naqshli temir yoki temir-beton panjara Yaxlit temir-beton
9	Dam olish uylari, pansionatlar, sanatoriyalar, bolalar va talabalar dam olish lagerlari, dam olish bazalari, dala hovlilar	1,2-1,6	Naqshli temir yoki temir-beton panjara, g‘isht va temir panjara bilan kombinatsiya qilingan, yashil devor, yashil devor qatori orasiga o‘rnatiladigan po‘lat to‘r yoki ingichka sim to‘siq (bolalarni sog‘lomlashtirish muassasalaridan tashqari) (izohning 4 va 5 bandlariga qarang).
10.	Umumta’lim maktablari, maxsus maktablar, maktab -internatlar	1,6	Naqshli temir yoki temir beton panjara
11	Maktabgacha ta’lim muassasalari, bolalar uylari, nogironlar internat uylari, qariyalar uylari va jismonan zaif bolalar uchun maktabgacha muassasalari va maktablari	1,6	Naqshli temir yoki temir-beton panjara
12.	Aqlan zaif bolalar uchun maktabgacha muassasalar va maktablar	2,0	Temir-beton, g‘isht, shlakobeton yoki yaxlit beton (maktabgacha

			muassasalar uchun kichik eshik yoki yopiladigan darvoza)
13.	Ofislar, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari binolari hamda ularning majmualari	–	Loyiha topshirig‘iga binoan
14.	Sport komplekslari, stadionlar, ochiq suv havzalari va boshqa sport inshootlari (keluvchilarni nazorat qilish eshigi)	2	Naqshli temir yoki temir-beton panjara, g‘isht, yaxlit beton
15	Dam olish, botanika va zoologiya bog‘lari	2	Naqshli temir yoki temir-beton panjara, g‘isht, yaxlit beton
16	Radio va televideniyaning qo‘riqlanadigan obyektlari	–	Loyiha topshirig‘iga binoan
17	Umumiy ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari, savdo korxonalari, dom olish muassasalari, sayohat hamda xo‘jalik zonalari va boshqalar	1,6	Yashil devor, naqshli temir panjara (qo‘riqlash zarurati bo‘lganda)
18	Elchixonalar va boshqa chet el vakolatxona binolari	–	Loyiha topshirig‘iga binoan
19	Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, kollejlar,	–	Loyiha topshirig‘iga binoan
20	Temir yo‘l vokzallari	2	Naqshli temir panjara
21	Bozorlar	1,6-2	Naqshli temir yoki temir-beton panjara, g‘isht, yaxlit beton
22	Istirohat bog‘lari	–	Loyiha topshirig‘iga binoan
23	Yozgi istirohat bog‘lariga keluvchilarni nazorat qilib o‘tkazish uchun	1,6	Po‘lat to‘r yoki naqshli temir panjara, yashil devor
24.	Pulli avtomashinalar to‘xtash joylari	1,2-2	Po‘lat to‘r yoki naqshli temir panjara
25.	Yakka tartibdagi turar-joy binolari - xususiy qurilishlar.	–	Balandligi va ko‘rinishi arxitektura rejalashtirish topshirig‘iga binoan
Izohlar:1. Metropolitenning ochiq uchastkalari uchun to‘siqlar temir yoki temir-beton panjaradan, balandligi 1,6 m qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.			

EZR3847

2. Yog‘och to‘siqlarni chorvachilik, fermerlik, hayvonot xo‘jaliklari va o‘rmonchilikda qo‘llashga tavsiya etiladi.

3. Kiygizma to‘siqlar 3-ilovada keltirilgan uslublarda, har tomonga 0,5 m dan chiqarilgan yoki cho‘zilgan ustunlarga tortilgan tikanli simdan bajariladi.

4. To‘siqlar balandligi va ko‘rinishi qurilish uchastkalarining aniq sharoiti hamda arxitektura va shaharsozlik talablaridan kelib chiqib tanlanadi.

5. Bolalar va kattalar birgalikda dam oladigan sog‘lomlashtirish muassasalarida to‘siqlar mustahkam bo‘lishi kerak. Bunda, vertikal elementlar orasidagi masofa 100 mm dan kam bo‘lmaydi.

6. Tog‘li hududlarda hamda to‘g‘on atrofidagi to‘siqlarning balandligini 1,6 m dan kam olinmaydi.

7. Gruntlarning xossalaridan qat’iy nazar, tog‘li hududlardagi to‘siqlar, intensiv qor erishi va yomg‘ir davridagi yuzaga keluvchi suv oqimlardan kuchki oqimlarni tutib qoluvchi qurilmalar bilan himoyalash zarur.

8. Yashil devorlar va ihota daraxtzorlari maxsus navdagi butalar va daraxtlarni 1–3 qator qilib o‘tqazish yo‘li bilan barpo qilinadi. Yashil devorlar uchun butalar va daraxtlar mahalliy tuproq va iqlim sharoitini hisobga olgan holda tanlanadi.


9. Mahalliy qurilish materiallar (pishiq va silikat g‘ishtlar, beton, temir beton, shlakobeton, gazobeton)ni to‘siqlarda ishlatish to‘siqlarning maqsadlari hamda texnik-iqtisodiy muvofiqligidan kelib chiqqan holda qo‘llaniladi.

10. Sanoat, qishloq xo‘jalik korxonalarini, jamoat binolarining xo‘jalik zonalarini loyihalashtirishda to‘siqlar odatda amaldagi namunaviy loyihalar asosida qabul qilinadi. Korxonalar va binolar magistral ko‘chalar bo‘ylab joylashtirilganda to‘siqlarga SHNQ 1.03.03-23 va SHNQ 1.03.02-23 talabalari hamda ushbu ma’lumotnomada keltirilgan ma’lumotlardan yuqori darajada arxitektura talablari belgilanishi mumkin.

EZR3847


“Korxonalar, binolar va inshootlar
hududlarini to‘sish” ma’lumotnomasiga
2-ILOVA

To‘siqlarning tuzilishi




1 – panelli to‘siq ; 2 – tirgak paneli; 3 – tayanch (yotiq-bo‘ylama).

1-rasm. Panelli to‘siq



1 – to‘siq paneli ; 3 – tayanch (yotiq-bo‘ylama); 4 – to‘siq .ustini

2–rasm. Tik turuvchi panelli to‘siq




3-tayanch (yotiq-bo‘ylama); 4 – to‘siq .ustini ; 5 –arqonlar**:** yo‘g‘on kanopdan, sun’iy tolali, sim, po‘latdan.

3–rasm. Tik turuvchi devorlar


“Korxonalar, binolar va inshootlar
hududlarini to‘sish” ma’lumotnomasiga
3-ILOVA

Kiygizma to‘siqlar shakllari


Г-симон кийгизма тўсиқ



Уч қатор тикан симли




Ясси хавфсизлик тўсиғи




Қия панелли

Ү-симон кийгизма тўсиқ



Олти қаторли тикан симли




Спиралли хавфсизлик тўсиғи




Қия панелли

Чўзилган устун



Уч қатор тикан симли



Ясси хавфсизлик тўсиғи